# XORAZM VILOYATI XAZORASP TUMANI HOKIMINING
# QARORI

2024-yil 29-oktabr 609-12-174-Q/24 Hazorasp tuman hokimligi

**2025 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish toʻgʻrisida**

Oʻzbekiston Respublikasining “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi OʻRQ 642-sonli Qonuni hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga asosan, tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. Hazorasp tumanida 2025-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish boʻyicha korxona, tashkilot va muassasalar roʻyxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu qarorning 1-ilovasida koʻrsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xodimlarning roʻyxati boʻyicha oʻrtacha sonidan kelib chiqqan holda **56 ta** shtatni tashkil etadigan **4.6 % miqdorda** ish oʻrni band qilib qoʻyilsin

Shu jumladan:

oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan bolalari, nogironligi boʻlgan bolalari bor yolgʻiz otaga yoki onaga, shuningdek koʻp bolali oilalarning ota-onalari uchun **0,2% miqdorda 2 ta ish oʻrni;**

umumiy oʻrta va oʻrta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega boʻlgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari boʻyicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun **0.2% miqdorda 3 ta ish oʻrni;**

Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta ʹlim muassasalarining davlat grantlari boʻyicha taʻlim olgan bitiruvchilari uchun **0.2% miqdorda 2 ta ish oʻrni;**

Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qoʻshinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilgan shaxslar uchun **0.2%miqdorda 2 ta ish oʻrni;**

nogironligi boʻlgan shaxslar uchun **3.3 miqdorda 41 ta ish oʻrni**;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun **0.1% miqdorda 1 ta ish oʻrni;**

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun **0.2% miqdorda 2 ta ish o‘rni;**

Odam savdosidan jabrlanganlar uchun **0.2% miqdorda 2 ta ish o’rni;**

Atrofdagilar uchun xavf tug’dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun **0.0% miqdorda 0 ta ish o’rni.**

Zo’ravonlik natijasida jabirlabgan shaxslar uchun **0.1% miqdorda 1 ta ish o’rni.**

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya va gigiena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi ta’minlansin, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun — bolalarni tarbiyalash majburiyatlari va mehnat majburiyatlari bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan hamda “Mehribonlik” uylari bitiruvchilari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga hamda mutaxassisligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun — mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga sog‘lig‘ining holatini hamda mehnat faoliyatiga doir belgilangan qarshi ko‘rsatmalar hisobga olingan holda mehnat majburiyatlarini moneliksiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari.

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

4. Tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarga ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro‘yxatga olingan, ro‘yxat raqami 3163) buyrug‘iga asosan subsidiya ajratib berish tartibi bo‘yicha ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga — har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash belgilanganligi inobatga olinsin.

6. Ushbu qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan korxona ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qoʻyilgan ish oʻrinlari toʻgʻrisida va 3-ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarda ijtimoiy muhofazaga

muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan kasb va lavozimlar tashkil qilinsin.

7. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha mazkur qaror ijrosini bajarmagan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga ko‘ra ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

8. Hazorasp tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi besh kun muddatda ushbu qarorni 1-ilovasida ko‘rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazsin.

9. Ushbu qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin va 2025-yil 1-yanvardan kuchga kirishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 3-noyabdagi 369-12-174-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Hazorasp tuman hokimligi axborot xizmati raxbari J.Usmanova mazkur qarorni Hazorasp tuman hokimligining hazorasp hokimiyat.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Hazorasp tuman hokimining birinchi o’rinbosari J.Ro'zimov xamda Hazorasp tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i T.Kuryazov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **Z.Abdirimov**

Hazorasp tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
609-12-174-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**2025 yilda Hazorasp tumani boʻyicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qoʻyilgan ish oʻrinlari toʻgʻrisida**

## MA'LUMOT

| № | Hududlar nomi | Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatl | Kelgusi yilga zaxiraga qoʻyish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni | shu jumladan: |
|---|---|---|---|---|

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **asha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona tashkilotlar roʻyxati (korxona va tashkilotlar nomi)** | | **14 yoshga toʻlmagan bolalari, nogironligi boʻlgan bolalari bor yolgʻiz otaga yoki onaga, shuningdek koʻp bolali oilalarning ota-onalar uchun band qiling** | **umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʻlim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega boʼlgan yoshlar uchun band qilingan ish** | **«Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy taʼlim muassasalarining davlat grantlari boʻyicha taʻlim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish oʻrinlari soni** | **muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilgan shaxslar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni** | **nogironligi boʻlgan shaxslar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni** | **pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni** | **jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga koʻra oʻziga nisbatan tibbiy yoʻsindagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni** | **odam savdosidan jabrlanganlar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni** | **Atrofdagilar uchun xavf tugʻdirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun ish oʻrinlari soni** | **Zo'ravonlik natijasida jabirlanganlar** |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | **an ish o‘rinlari soni** | **o'rinlari soni** | | | | | | | | |
| A | B | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
| 1 | Hazorasp | Hazorasp-tekstil mchj | 15 | 2 | 1 | 1 | 1 | 9 | | 1 | | | |
| 2 | Hazorasp | Hazorasp tumani 2-son | 2 | | | 1 | | 1 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | umumiy o'rta ta'lim maktabi | | | | | | | | | | | |
| 3 | Hazor asp | Hazorasp tumani 4-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 3 | | | | 1 | 2 | | | | | |
| 4 | Hazor asp | Hazorasp tumani 5-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| 5 | Hazor asp | Hazorasp tumani 21-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 2 | | 1 | | | 1 | | | | | |
| 6 | Hazor asp | Hazorasp tumani 23-son | 2 | | | | | 2 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | umumiy o'rta ta'lim maktabi | | | | | | | | | | | |
| 7 | Hazorasp | Hazorasp tumani 25-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 3 | | | | | 2 | | | 1 | | |
| 8 | Hazorasp | Hazorasp tumani 29-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| 9 | Hazorasp | Hazorasp tumani 32-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| 10 | Hazorasp | Hazorasp tumani 38-son | 2 | | | | | 2 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | umumiy o'rta ta'lim maktabi | | | | | | | | | | | |
| 11 | Hazorasp | Hazorasp tumani 40-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 2 | | | | | 1 | | 1 | | | |
| 12 | Hazorasp | Hazorasp tumani 41-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 1 | | | | | 1 | | | | | |
| 13 | Hazorasp | Hazorasp tumani 46-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| 14 | Hazorasp | Hazorasp tumani 49-son | 2 | | 1 | | | 1 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | umumiy o'rta ta'lim maktabi | | | | | | | | | | | |
| 15 | Hazorasp | Hazorasp tumani 52-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 1 | | | | | 1 | | | | | |
| 16 | Hazorasp | Hazorasp tumani 4-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 2 | | | | | 1 | 1 | | | | |
| 17 | Hazorasp | Hazorasp tumani 6-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 2 | | | | | 2 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 18 | Hazorasp | Hazorasp tumani 10-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 2 | | | | | 1 | | | | | 1 |
| 19 | Hazorasp | Hazorasp tumani 14-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 2 | | | | | 1 | | | 1 | | |
| 20 | Hazorasp | Hazorasp tumani 16-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 1 | | | | | 1 | | | | | |
| 21 | Hazorasp | Hazorasp tumani 17-son maktabg | 1 | | | | | 1 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | acha ta'lim muassasasi | | | | | | | | | | | |
| 22 | Hazorasp | Hazorasp tumani 19-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| 23 | Hazorasp | Hazorasp tumani 21-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 1 | | | | | 1 | | | | | |
| **Jami:** | | | **56** | **2** | **3** | **2** | **2** | **41** | **1** | **2** | **2** | **0** | **1** |

Hazorasp tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
609-12-174-Q/24-son qaroriga
2-ilova

## 2025 yilda Hazorasp tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida

## MA'LUMOT

| № | Hududlar nomi | Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan | Shtat jadvali bo'yicha hodimlarning umumiy soni | Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni | shu jumladan: |
|---|---|---|---|---|---|

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona tashkilotlar ro‘yxati korxona va tashkilotlar nomi | | 14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar | umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo’lgan yoshlar uchun band qilingan ish | «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta‘lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni | muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni | nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni | pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni | jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni | odam savdosidan jabrlanganlar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni | Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun ish o‘rinlari soni | Zo'ravonlik natijasida jabirlanganlar |

| | | | | | **uchun band qilingan ish o‘rinlari soni** | **o'rinlari soni** | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **1** | **Hazorasp** | Hazorasp-tekstil mchj | 300 | 15 | 2 | 1 | 1 | 1 | 9 | | 1 | | | |
| **2** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 2-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 31 | 2 | | | 1 | | 1 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **3** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 4-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 66 | 3 | | | | 1 | 2 | | | | | |
| **4** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 5-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 55 | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| **5** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 21-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 30 | 2 | | 1 | | | 1 | | | | | |
| **6** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 23-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 61 | 2 | | | | | 2 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **7** | **Hazo rasp** | Hazorasp tumani 25-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 59 | 3 | | | | | 2 | | | 1 | | |
| **8** | **Hazo rasp** | Hazorasp tumani 29-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 45 | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| **9** | **Hazo rasp** | Hazorasp tumani 32-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 65 | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| **10** | **Hazo rasp** | Hazorasp tumani 38-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 66 | 2 | | | | | 2 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **11** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 40-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 33 | 2 | | | | | 1 | | 1 | | | |
| **12** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 41-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 31 | 1 | | | | | 1 | | | | | |
| **13** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 46-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 49 | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| **14** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 49-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 33 | 2 | | 1 | | | 1 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **15** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 52-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 28 | 1 | | | | | 1 | | | | | |
| **16** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 4-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 32 | 2 | | | | | 1 | 1 | | | | |
| **17** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 6-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 42 | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| **18** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 10-son maktabgacha | 32 | 2 | | | | | 1 | | | | | 1 |

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | ta'lim muassas asi | | | | | | | | | | | | |
| **19** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 14-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 33 | 2 | | | | | 1 | | | 1 | | |
| **20** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 16-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 33 | 1 | | | | | 1 | | | | | |
| **21** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 17-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 27 | 1 | | | | | 1 | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **22** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 19-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 45 | 2 | | | | | 2 | | | | | |
| **23** | **Hazorasp** | Hazorasp tumani 21-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 25 | 1 | | | | | 1 | | | | | |
| **Jami:** | | | **1221** | **56** | **2** | **3** | **2** | **2** | **41** | **1** | **2** | **2** | **0** | **1** |

**Korxona, tashkilot va muassasalarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan kasb va lavozimlar**

**R O' Y X A T I**

| № | Korxona tashkilot, muassasalar nomi | Shtat javdvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni | Band qilib qo'yilgan ish o'rinlarining eng kam belgilangan miqdori | Ko'rsatilgan ish o'rinining kasbi va lavozimi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Hazorasp-tekstil mchj | 300 | 15 | Tikuvchi, to'quvchi, yuk tashuvchi |
| 2 | Hazorasp tumani 2-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 31 | 2 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 3 | Hazorasp tumani 4-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 66 | 3 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 4 | Hazorasp tumani 5-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 55 | 2 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 5 | Hazorasp tumani 21-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 30 | 2 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 6 | Hazorasp tumani 23-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 61 | 2 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 7 | Hazorasp tumani 25-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 59 | 3 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 8 | Hazorasp tumani 29-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 45 | 2 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 9 | Hazorasp tumani 32-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 65 | 2 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 10 | Hazorasp tumani 38-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 66 | 2 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 11 | Hazorasp tumani 40-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 33 | 2 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 12 | Hazorasp tumani 41-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 31 | 1 | O'qituvchi, hovlibon,qorovul |
| 13 | Hazorasp tumani 46-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 49 | 2 | Metodist, tarbiyachi |
| 14 | Hazorasp tumani 49-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 33 | 2 | Metodist, tarbiyachi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 15 | Hazorasp tumani 52-son umumiy o'rta ta'lim maktabi | 28 | 1 | Metodist, tarbiyachi |
| 16 | Hazorasp tumani 4-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 32 | 2 | Metodist, tarbiyachi |
| 17 | Hazorasp tumani 6-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 42 | 2 | Metodist, tarbiyachi |
| 18 | Hazorasp tumani 10-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 32 | 2 | Metodist, tarbiyachi |
| 19 | Hazorasp tumani 14-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 33 | 2 | Metodist, tarbiyachi |
| 20 | Hazorasp tumani 16-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 33 | 1 | Metodist, tarbiyachi |
| 21 | Hazorasp tumani 17-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 27 | 1 | Metodist, tarbiyachi |
| 22 | Hazorasp tumani 19-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 45 | 2 | Metodist, tarbiyachi |
| 23 | Hazorasp tumani 21-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 25 | 1 | Metodist, tarbiyachi |
| **JAMI** | | **1221** | **56** | |